

**O'ZBEK TILIDA TELEVIZION ALOQA TARMOG'IGA OID BIRIKMA
TERMINLAR XUSUSIDA**

M.Nasirova
Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek tilida televizion aloqa tarmog'iga oid birikma terminlar xususida hamda ularning terminologik sistemadagi o'rni, birikma terminlarning o'ziga xos lingistik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *televizion aloqa tarmog'i, birikma terminlar, komponent, sintaktik usul, yasama terminlar.*

O'zbek tili terminlar sitemasida sintaktik usulda termin hosil qilish keng ommalashgani. Yakka holdagi terminlarga nisbatan keng qo'llaniladigan terminlar birikma terminlar hisoblanadi. Birikma terminlarning komponentlari har bir soha terminologik sistemasida turlicha miqdorni hosil qiladi.

N.Mahmudova telefoniyaga sohasiga oid terminlarni tadqiq qilish jarayonida sohaga oid birikma terminlarni asosan uch usul yordamida hosil qilinishi hamda ularni komponentlari miqdoridan sakkiz guruhga ajratgan holda tadqiq etadi. Ular terminlarning komponent miqdori ko'paygani sari termin tushunchasi mavhumlikdan ancha yiroqlashib borishini ta'kidlab o'tadilar⁹².

Z.Urunova ham defektologiya sohasiga tegishli terminlarni struktur jihatdan turlarga ajratar ekan, birikma terminlarga alohida to'xtalib o'tadi va o'zbek tili defektologiya sohasiga oid birikma terminlarni hosil qilinish usullari o'ganilib, komponentlari miqdoridan olti guruhga bo'lib tadqiq etadi⁹³.

O'zbek tili televizion aloqa sohasida birikma terminlar miqdor jihatdan ko'pdir. Ushbu terminlar barcha terminologik tizimlarda o'zining mustahkam o'rniga ega. Birikma terminlar sintaktik usulda ikki va undan ortiq so'z shakllarini o'zaro bog'lash yo'li orqali ham hosil qilinadi:

1) O'z til birliklarini o'zaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *tayyor bo'lmaslik vaqtisi, kirish kuchaytirgichi, asosiy yaproq, guruhli kechiktirish, tebranishlarning so'nishi, yer to'lqini, eltuvchi quvvat, beixtiyoriy nurlanish, o'rtacha quvvat, ikkilangan navbat, santimentrlı to'lqinlar o'tkazish*

⁹² N.T.Mahmudova. O'zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. Diss. avtoref. — Qo'qon, 2022.— B.59-68

⁹³ Urunova Z. O'zbek tilida defektologiya terminlari: O'zbek tilida ekologik terminlar : Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. Diss. avtoref. —Toshkent, 2021.

qobiliyati, fazoda tarqalish, to'lqinlarning tarqalishi, tarqoq qabul va shu kabi terminlar;

2) O'z til birliklari va o'zga til birliklarini o'zaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *polosa kengligi, oraliq liniya, oxirgi stansiya, signalning kuchsizlanishi, asosiy polosa, ko'tarilgan refraksiya, qutblantiruvchi selektor, oddiy modulatsiya, radiochastota shovqini, joy relyefi, qo'shni kanal, pasaytirilgan refraksiya, parabolik qaytargich, antenna qaytargichi, dialektrik o'tkazuvchanlik, qabul yo'q zona va sh.k.*

3) O'zga til birliklarini biriktirish orqali soha terminlari hosil qilinadi: *topografik karta, radiorele liniyasi, standart refraksiya, regenerativ retranslyator, pereskopiv antennalar, rezerv stvol, trassa profile, magistral radiorele liniya, kritik refraksiya, zona radiorele liniyasi, analog signal, adaptiv modulatsiya, aktiv filtr, amplituda detektori, antenna polotnosi va shu kabi terminlar.*

Televizion aloqa sohasiga oid birikma terminlar juft, takroriy, qisqartma so'zlar ishtirokida ham hosil qilingan. Bunday terminlarning modeli quyidagicha:

1. [juft so'z +leksema] modelidagi terminlar: *punkt-zona aloqasi, antenna-fider qurilmasi, ko'chki oraliq diode, antenna-fider trakti, azimutal-masofa o'lchagich telemayog'i, ekivalent izotrop-nurlanuvchi quvvat, kiritish-chiqarish tizimi, uzatilayotgan axborotni kiritish-chiqarish kabi.*

2. [takroriy so'z +leksema] modelidagi terminlar: *buzilishning ketma-ket to'planishi, to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish masofasi, troposferadagi qavat-qavat, bir jinsli to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish doirasidagi tarqalish, galma-gal ulanish kabi.*

3. [qisqartma so'z +leksemal] modelidagi terminlar: *TV televizor, HD yuqori aniqlik, FTA bepul efirga uzatish, CATV kabel televizor, OTT internet orqali televizor, GPS/LONACC qabul qilgich, PPV har bir tomosha uchun to'lov va shu kabi terminlar.*

O'zbek tili televizion aloqa sohasi terminlari struktur jihatdan besh turga ega ekanligi tadqiqotimiz jarayonida ma'lum bo'ldi. Ushbu turlarning hammasi har bir terminologik tizimda o'z ahamiyatiga egadir. Televizion aloqa terminlar strukturasining eng asosiy turlari: qo'shma hamda birikma terminlar ekanligi ilmiy kuzatishimizda aniqlandi. Sodda tub terminlar miqdor jihatdan kam, lekin bundan farqli ravishda sodda yasama terminlar soha terminologik tizimida ko'pchilikni tashkil qiladi. Sodda yasama terminlarning deyarli yarmidan ko'pi o'zlashma terminlarning o'zbekchalashtirish orqali hosil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati.—Toshkent-2010.
2. Davronbekov D.A., Pulatov Sh.U., Aliyev U.T., Pisetskiy Yu.V. Mobil aloqa tizimlarining uzatish va qabil qilish qurilmalari / darslik. —Toshkent: “Aloqachi”, 2020. – 210 b
3. Mahmudova N.T. O'zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. Diss. avtoref. — Qo'qon, 2022.— B.59-68
4. Urunova Z. O'zbek tilida defektologiya terminlari: O'zbek tilida ekologik terminlar : Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. Diss. avtoref. — Toshkent, 2021.